

MUXIM FAKT №06

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:		"BEST PIPE AND PARTS" aksiyadorlik jamiyati				
	Qisqartirilgan:		"BEST PIPE AND PARTS" AJ				
	Birja tikerining nomi:*						
ALOQA MA'LUMOTLARI							
2.	Joylashgan yeri:		O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Asaka tumani, Saxiylik ko'chasi, 124-uy				
	Pochta manzili:		O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Asaka tumani, Saxiylik ko'chasi, 124-uy				
	Elektron pochta manzili:*		info@bpap.uz				
	Rasmiy veb-sayti:*		bpap.uz				
MUHIM FAKT TO'G'RSIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:		06					
Muhim faktning nomi:		Эмитентнинг олий бошқарув органи томонидан қабул қилинган қарорлар					
Umumiy yig'ilish turi:		Акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий йигилиши					
Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:		09.01.2026-йил					
Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		16.01.2026-йил					
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:		O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Asaka tumani, Saxiylik ko'chasi, 124-uy					
Umumiy yig'ilish kvorumi:		90,74%					
№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		Yoqlash		Qarshi		Betaraflar	
		%	Soni	%	soni	%	soni
3.	1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.	100	245 000	-	-	-	-
	2. Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash.	100	245 000	-	-	-	-
	3. "BEST PIPE AND PARTS" AJni 2025-2030-yillar mobaynida strategik rivojlantirish yuzasidan "Biznes rejasi"ni tasdiqlash.	100	245 000	-	-	-	-
	4. "BEST PIPE AND PARTS" AJ tomonidan 5 yil ya'ni 2025-2029-yillar mobaynida olinadigan sof foydalarini jamiyatning ishlab chiqarishini kengaytirish uchun reinvetsiya qilish orqali jamiyatda qoldirish to'g'risida.	100	245 000	-	-	-	-
	5. Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi yo'li bilan ko'paytirish va ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlarini belgilash yuzasidan qaror qabul qilish to'g'risida.	100	245 000	-	-	-	-

6.	Qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlash to‘g‘risida.	100	245 000	-	-	-	-
Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:							
1.1.	Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining reglamenti qo‘yidagi tartibda tasdiqlansin: -savol va takliflar ma‘ruzachilarning axborotidan so‘ng berilsin; -kun tartibidagi barcha masalalar bo‘yicha so‘zga chiquvchilarga 5-10 daqiqa; -taklif va mulohazalar uchun 3 daqiqa; -kun tartibidagi masalalar bo‘yicha yopiq (byulleten asosida) ovoz berish orqali qaror qabul qilinsin.						
2.1.	Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining sanoq komissiyasi shaxsiy tarkibiga qo‘yidagi nomzodlar tasdiqlansin: - O.Erkinov (ijrochi direktor); - A.Shermatov (jamiyat bosh iqtisodchisi); - J.Mamadaliyev (jamiyat hisobchisi).						
3.1.	“BEST PIPE AND PARTS” AJ Ijrochi direktorining axboroti ma‘qullansin.						
3.2.	“BEST PIPE AND PARTS” AJni 2025-2030-yillar mobaynida strategik rivojlantirish yuzasidan “Biznes reja”si tasdiqlansin.						
4.1.	“BEST PIPE AND PARTS” AJ tomonidan 5 yil ya‘ni 2025-2029-yillar mobaynida olinadigan sof foydalari jamiyatning ishlab chiqarishini kengaytirish uchun reinvestisiya qilish orqali jamiyatda qoldirilsin.						
5.1.	<p>“BEST PIPE AND PARTS” AJning umumiy qiymati 41 580 000 (qiriq bir million besh yuz sakson ming) so‘mlik nominal qiymati 1 100 (bir ming bir yuz) so‘m bo‘lgan 37 800 (o‘ttiz yetti ming sakkiz yuz) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalaridan iborat qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi amalga oshirilsin.</p> <p>Qo‘shimcha chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari qo‘yidagicha belgilansin:</p> <p>-aksiyalarni joylashtirish usuli – ushbu chiqarilishdagi aksiyalar Jamiyat aksiyadorlariga imtiyozli ravishda olish huquqini qo‘llagan holda, baholovchi tomonidan aniqlangan bozor qiymatida, jamiyat aksiyadorlari “UzAuto Korea Co. Ltd.” ihtiyoridagi 245 000 dona va Tashkuziyeva Salima Muladjanovna ihtiyoridagi 25 000 dona aksiyalariga mutanosib ravishda (miqdor)da yopiq obuna usulida joylashtiriladi;</p> <p>-aksiyalarni joylashtirishning muddati – ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish, aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab qirq besh kundan kechiktirmasdan amalga oshiriladi;</p> <p>-aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqining mavjudligi to‘g‘risidagi bildirishnoma qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartib va muddatlarda ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan kundan e‘tiboran 20 (yigirma) kun. Biroq imtiyozli sotib olish huquqining amal qilish muddati davomida emitentning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to‘g‘risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo‘lsa, ushbu arizalarning ohirgisi emitentga kelib tushgan kundan keyingi ish kuni aksiyalarni joylashtirishning boshlash sanasi hisoblanadi;</p> <p>-aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – mazkur chiqarilishning so‘nggi aksiyasi joylashtirilgan sana, biroq davlat ro‘yxatiga olingan sanadan boshlab qirq besh kundan oshmasligi lozim;</p> <p>-aksiyalarni joylashtirishning tartibi – chiqarilayotgan aksiyalar uyushmagan birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish orqali qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtiriladi. Aksiyalar joylashtirilishi jarayonida andarrayterlar jalb qilinishi ko‘zda tutilmaydi.</p> <p>Aksiyadorlarning imtiyozli olish huquqining amal qilish muddati tugaganiga qadar chiqarilayotgan aksiyalar imtiyozli huquqqa ega bo‘lmagan shaxslarga joylashtirilmaydi. Aksiyadorlarning imtiyozli olish huquqining amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar qonunchilik bilan belgilangan tartib va qoidalarga muvofiq bekor qilinadi.</p> <p>-chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Aksiyador ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega bo‘ladi. Jamiyat aksiyalarini imtiyozli olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning ro‘yxati qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sana holatiga shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlari reestrining ma‘lumotlari asosida tuziladi. Imtiyozli huquq</p>						

	<p>amalgaga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning faqat butun miqdorini olishi mumkin. Jamiyat aksiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) kun ichida ommaviy axborot vositalarida bildirishnomani e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni olishni taklif etadi. Bildirishnoma matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan aksiyalarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida Jamiyatga taqdim etilishi kerak. Aksiyadorlarning aksiyalarni imtiyozli olish huquqi bildirishnoma e'lon qilingan paytdan e'tiboran 20 (yigirma) kun davomida amal qiladi. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar Jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi. Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>-ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish bahosi – ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan imtiyozli huquqqa ega aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish baholangan bozor qiymati 321 584 (uch yuz yigirma bir ming besh yuz sakson to'rt) so'mdan amalga oshiriladi.</p> <p>-aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi – ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida faqat pul mablag'lari bilan naqd va (yoki) naqdsiz shaklda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Imtiyozli huquq bo'yicha joylashtiriladigan aksiyalar uchun to'lovlar naqd va naqdsiz pul mablag'lari ko'rinishida qabul qilinadi.</p> <p>Aksiyalar uchun pul mablag'lari "Asakabank" AJ Bobur BXM bankdagi quyidagi hisob raqamga qabul qilinadi: h/r 20214000200572800001, MFO 00873, STIR 202128093, Bank joylashgan manzil: Andijon viloyati, Asaka tumani, Ulug'bek MFY, Saxiylik ko'chasi, 124-uy.</p> <p>-ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi – ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi vositalari ushbu chiqarilishi haqiqiy emas yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb tan olingan kundan boshlab 10 (o'n) kuni ichida emitent tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda qaytarib beriladi.</p>						
5.2.	Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar yopik usulda, imtiyozli olish huquqini qo'llagan holda joylashtirilsin.						
6.1.	"BEST PIPE AND PARTS" AJning aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarori tasdiqlansin.						
Emitentning ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolari foydasiga hisoblangan va to'langan haq va (yoki) kompensatsiyalar ***							
	№	F.I.Sh.	Shaxs a'zosi hisoblangan emitent organining nomi	To'lov turi (haq va (yoki) kompensatsiyalar)	Hisoblangan summa (so'm)	Mablag'lar hisoblangan davr	To'lov nazarda tutilgan emitent hujjati
	1.	-	-	-	-	-	-
	2.	-	-	-	-	-	-
Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash:							
Kandidatlar to'g'risida ma'lumot							
	№	F.I.Sh.	Ish joyi	Lavozimi	Tegishli aksiyalar turi soni		Ovozlar soni
	1.	-	-	-	-	-	-
	2.	-	-	-	-	-	-
Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni**							